



SUN'IY INTELLEKT VOSITALARI ORQALI KOREYS TILI YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Amirov Zikrulla O'rol o'g'li

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Koreys filologiyasi kafedrası
bakalavriat bitiruvchisi*

Ilmiy rahbar: Haydarov Jasur Bahodirovich

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Koreys filologiyasi kafedrası
katta o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bitiruv malakaviy ishi doirasida koreys tili yozma nutqini rivojlantirishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. 18 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan 20 nafar o'quvchi o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma asosida ChatGPT, Gemini va Papago kabi vositalardan foydalanish dinamikasi va maqsadlari o'rganildi. Shuningdek, SI tomonidan generatsiya qilingan matnlar hamda inson tomonidan «O'smirlik davrining ahamiyati» mavzusida yozilgan matnlarning qiyosiy-lingvistik tahlili o'tkazildi. Matnlarning leksik-grammatik va emotsional farqlari aniqlanib, til o'rgatishdagi raqamli transformatsiyaning yutuq hamda kamchiliklari belgilab berildi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, koreys tili, yozma nutq, ChatGPT, Gemini, raqamli texnologiyalar, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), shaxsiylashtirish (personalizatsiya), qiyosiy tahlil.

АКНОТАЦИЯ

В данной статье анализируются роль и значение технологий искусственного интеллекта (ИИ) в развитии письменной речи корейского языка в рамках выпускной квалификационной работы. На основе



социологического опроса, проведенного среди 20 учащихся в возрасте от 18 до 35 лет, изучена динамика и цели использования таких инструментов, как ChatGPT, Gemini и Papago. Проведен сравнительно-лингвистический анализ текстов, сгенерированных ИИ, и текстов, написанных человеком, на тему «Важность подросткового возраста». Выявлены лексико-грамматические и эмоциональные различия, определены преимущества и недостатки цифровой трансформации в обучении языку.

Ключевые слова: искусственный интеллект, корейский язык, письменная речь, ChatGPT, Gemini, цифровые технологии, обработка естественного языка (NLP), персонализация, сравнительный анализ.

ABSTRACT

This article analyzes the role and significance of artificial intelligence (AI) technologies in developing Korean written language proficiency within the framework of a bachelor's thesis. Based on a sociological survey conducted among 20 Korean language learners aged 18 to 35, the dynamics and purposes of utilizing AI tools like ChatGPT, Gemini, and Papago were thoroughly investigated. A comparative linguistic analysis was performed on texts generated by AI and those written by humans on the topic "The Importance of Adolescence". Lexico-grammatical and emotional distinctions were identified, and the pedagogical advantages alongside the challenges of digital transformation in language acquisition were summarized.

Keywords: artificial intelligence, Korean language, written speech, ChatGPT, Gemini, digital technologies, natural language processing (NLP), personalization, comparative analysis.



Mavzuning dolzarbligi: Axborot texnologiyalari asrida xorijiy tillarni, xususan, agglyutinativ tuzilishga ega bo'lgan koreys tilini o'rganishda sun'iy intellekt (SI) modellarining o'rni jadal ortib bormoqda. Mazkur tadqiqot bitiruv malakaviy ishi doirasida bajarilgan bo'lib, zamonaviy neyron tarmoqlarning koreys tili yozma nutqini shakllantirish va takomillashtirishdagi pedagogik hamda lingvistik imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan.

Tadqiqot maqsadi: Sun'iy intellektga asoslangan generativ modellar va raqamli platformalarning koreys tili yozma nutq mezonlariga ta'sirini tahlil qilish, o'quvchilar orasida SI vositalaridan foydalanish dinamikasini statistik baholash hamda kompyuter va inson tomonidan yaratilgan matnlarning farqli jihatlarini aniqlashdan iborat.

Metodologiya: Tadqiqotda tizimli tahlil, sotsiologik so'rovnoma (18–35 yosh oralig'idagi 20 nafar respondent ishtirokida), qiyosiy-tipologik tahlil va lingvistik eksperiment metodlaridan foydalanildi. Ishtirokchilar yosh guruhlarida SI vositalaridan foydalanish ko'rsatkichlari bo'yicha diagramma va grafiklar asosida o'rganildi.

Ilmiy yangiligi va natijalari: Koreys tili o'rganuvchilari orasida ChatGPT (85%) va Gemini (80%) eng ommabop SI vositalari ekanligi aniqlandi. Ilk bor ma'lum bir mavzu ("*청소년기의 중요성*") doirasida SI va inson tomonidan yozilgan koreyscha matnlarning leksik-grammatik hamda emotsional-shaxsiylik xususiyatlari lingvistik tahlildan o'tkazildi. SI matnlarning qat'iy qoliplashgan va akademik tuzilishga egaligi, inson matnining esa yuqori hissiy-ijtimoiy va shaxsiy kechinmalarga boyligi isbotlandi.

Amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalari oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida koreys tili yozma nutqini o'qitish metodikasini raqamlashtirishda,



adaptiv o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda va mustaqil ta’lim yo‘nalishlarida uslubiy qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.

KIRISH

Zamonaviy dunyo raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt (SI) sohalaridagi inqilobiy o‘zgarishlar bilan yuzlashmoqda. Inson aql-idrokiga taqlid qilishga va muayyan vazifalarni avtomatik tarzda bajarishga qaratilgan ushbu fan tarmog‘iga ilk bor 1956-yilda amerikalik olim Jon Makkarti tomonidan asos solingan edi. XXI asrga kelib esa SI atamasi (inglizcha *Artificial Intelligence — AI*) global miqyosda innovatsion ta’limning ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), ovozni tanish, adaptiv o‘quv dasturlari va neyron tarmoqlar chet tillarini o‘rganish va o‘rgatish jarayonini tubdan jadallashtirmoqda.

Xususan, xorijiy til sifatida koreys tilini o‘rganayotgan talabalar uchun yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish doimiy ravishda murakkab pedagogik muammo bo‘lib kelgan. Koreys tilining agglyutinativ tabiati, o‘ziga xos morfologik qo‘shimchalari va murakkab sintaktik tuzilishi o‘rganuvchilardan yuqori lingvistik kompetensiyani talab qiladi. An’anaviy ta’lim metodlari ko‘p hollarda auditoriyadagi har bir talabaga individual yondashish, ularning yozma xatolarini real vaqt rejimida tahlil qilish va individual tavsiyalar berish resursiga ega emas.

Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt vositalarining ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi talabalarga vaqt va makon cheklovlarisiz o‘z yozma nutqini rivojlantirishga imkon bermoqda, bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sun’iy intellekt texnologiyalarining tilshunoslik va pedagogikaga kirib kelishi keng qamrovli xalqaro tadqiqot maydonini tashkil etadi. Mashhur olimlar Russell va



Norvig (2021) o'zlarining fundamental ishlarida SI tizimlarining inson kabi fikrlash va qaror qabul qilish simulyatsiyalarini tahlil qilgan holda, katta ma'lumotlar bazasi (Big Data) bilan ishlashning afzalliklarini ko'rsatib berganlar.

Pedagogik nuqtai nazardan, Luckin va boshqalar (2016) olib borgan tadqiqotlar AI texnologiyalarining ta'lim jarayonlarini shaxsiylashtirishdagi (personalizatsiya) beqiyos ahamiyatini isbotlaydi. Ularning fikricha, sun'iy intellekt har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga moslashib, an'anaviy sinf xonalaridagi "hamma uchun bir xil andoza" (one-size-fits-all) metodidan voz kechish imkonini beradi. Shuningdek, Holmes va boshqalar (2018) adaptiv o'quv tizimlari yordamida o'quvchining motivatsiyasini oshirish mexanizmlarini yoritgan.

Biroq, bu jarayonda ma'lum bir cheklovlar va muammolar ham mavjud. Selwyn (2019) o'z ishlarida SI vositalaridan foydalanishda talabalarning shaxsiy ma'lumotlari daxlsizligi va kibertahdidlar masalasini dolzarb muammo sifatida ko'taradi. West (2021) esa rivojlanayotgan mamlakatlarda ilg'or texnologik infratuzilmaning yetishmasligi oqibatida yuzaga keladigan "raqamli tengsizlik" (digital divide) muammosiga e'tibor qaratadi. Koreys olimlaridan Kuk va boshqalar (2021) NLP (Natural Language Processing) dasturlarining koreys tili semantikasi va kontekstini tushunishdagi yutuqlari va tizimli xatoliklarini tadqiq etganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu bitiruv malakaviy ishi doirasida koreys tili o'rganuvchilari orasida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish darajasi, chastotasi va uning samaradorligini o'rganish maqsadida sotsiologik-statistik tadqiqot tashkil etildi.

• **Ishtirokchilar (Sample):** Tadqiqotda koreys tilini o'rganayotgan 18 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan jami 20 nafar respondent ishtirok etdi.



Ishtirokchilar yosh va maqsadlar dinamikasini aniq ko‘rish uchun ikki guruhga ajratildi: 18–25 yosh (10 nafar) va 25–35 yosh (10 nafar).

• **Metodlar:** So‘rovnoma, qisqa intervyu, kuzatish hamda qiyosiy-tavsifiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Baholash mezonlari sifatida SI vositasidan foydalanish maqsadi, platforma turi, foydali jihatlari, qiyinchiliklari va yakuniy natijadorlik darajasi belgilab olindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Statistik Tahlil Natijalari

Respondentlardan olingan shaxsiy ma’lumotlar va anketalar tahlili ko‘rsatishicha, yosh guruhlari kesimida SIDan foydalanish dinamikasi o‘ziga xos egri chiziqni (trayektoriya) hosil qiladi. 18 yoshli o‘rganuvchilar orasida foydalanish darajasi 45% ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich yosh va kasbiy ehtiyoj ortishi bilan izchil ravishda yuksalib boradi. Eng yuqori cho‘qqi — 30 yoshdagi respondentlar guruhida qayd etildi (88%). Buning sababi, ushbu yoshdagi mutaxassislar koreys tili orqali shartnomalar tuzish, murakkab biznes hisobotlar tayyorlash va kasbiy muloqotda tezkor yordamga muhtojligidir. 31 yoshdan so‘ng esa ko‘rsatkich pasayib, 35 yoshda 35% ni tashkil etdi.

O‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, respondentlarning sun’iy intellektdan foydalanish maqsadlari quyidagi ulushlarda taqsimlangan:

- **Yozma va og‘zaki nutqni yaxshilash:** 34%
- **Matnlarni tarjima qilish (Papago, Google Translate):** 27%
- **Hisobotlar va rasmiy hujjatlar tayyorlash:** 20%
- **O‘qitish metodikasini mukammallashtirish:** 10%
- **Boshqa maqsadlar (Eps-Topik, kinematografiya):** 9%



Platformalar kesimida eng yuqori ko‘rsatkichni *ChatGPT* (85%) va *Gemini* (80%) egalladi. *Claude AI*, *NotebookLM* va *DeepSeek* dasturlari ko‘proq yuqori darajadagi (TOPIK 5–6) o‘rganuvchilar tomonidan maxsus topshiriqlar uchun ishlatilishi ma’lum bo‘ldi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning 90 foizi sun‘iy intellekt vositalaridan muntazam foydalanishini bildirgan. Eng ko‘p foydalanilgan platformalar quyidagilar bo‘ldi:

Platforma	Foydalanuvchilar ulushi
ChatGPT	85%
Gemini	70%
Google Translate	55%
NotebookLM	20%
Cloud AI	15%

Respondentlarning aksariyati SI vositalaridan quyidagi maqsadlarda foydalanishini qayd etdi:

- Matn tarjima qilish – 45%
- Grammatikani o‘rganish – 25%
- TOPIK imtihoniga tayyorlanish – 20%
- Talaffuz va muloqotni rivojlantirish – 10%

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, SI vositalaridan foydalanuvchilar yozma topshiriqlarni bajarishda ancha tez va samarali natijalarga erishgan.



Lingvistik va Komparativ Tahlil (SI hamda Inson Matni Farqlari)

Koreys tili agglyutinativ til bo'lgani bois, so'zlarga qo'shiladigan affikslar gapiruvchining ijtimoiy mavqeyi va hurmat shakllarini belgilaydi. Tadqiqot doirasida amaliy tajriba o'tkazildi: insonga (TOPIK yuqori darajali o'rganuvchi) va SI modeliga (ChatGPT) bitta mavzuda — "청소년기의 중요성" (**O'smirlik davrining ahamiyati**) matn yaratish topshirig'i berildi.

SI tomonidan yaratilgan matn tahlili:

SI matnida "사람은 누구나 청소년기를 거쳐 어른이 된다.." kabi jumlar orqali mavzu qat'iy mantiqiy tartibda, "Birinchidan (첫째)", "Ikkinchidan (둘째)" kabi formal markerlar yordamida akademik tarzda mukammal bayon etilgan. Grammatik xatolar deyarli kuzatilmaydi, gaplar sintaktik jihatdan standart andozalarga to'liq javob beradi. Biroq, uslub haddan tashqari quruq va mexanik xarakterga ega.

Inson tomonidan yozilgan matn tahlili:

Inson yaratgan matnda esa o'smirlarning ruhiy holati, ijtimoiy nizolar va ichki hissiyotlar ("심리적으로 불안정해지기 쉽다", "기존의 제도에 저항하거나...") chuqur emotsional bo'yoqdorlik bilan aks etgan. Inson muammoning sotsial va psixologik qirralarini jonli tajribadan kelib chiqib yoritadi.

Tahlil xulosasi:

SI vositalari grammatik aniqlik va vaqtni tejash (tezkorlik) bo'yicha mutloq ustunlikka ega bo'lsa-da, tilning tabiiyligi, madaniy kontekst konteksti, ijtimoiy o'ziga xosliklar (hurmat shakllarini joyida qo'llash) va emotsional chuqurlik masalasida inson resursi haligacha o'z yetakchiligini saqlab kelmoqda.



RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

O'rganilgan materiallar asosida SI vositalarining ta'limdagi asosiy kamchiliklari va xavflari umumlashtirildi:

1. **Texnologik qaramlik:** Talabalarning shaxsiy ijodiy fikrlash qobiliyati pasayishi va tayyor matnlarga ko'nikib qolishi.
2. **Madaniy va semantik xatolar:** SI modellarining koreys tilidagi murakkab idiomalarni va ijtimoiy hurmat shakllarini (존댓말/반말) kontekstga mos bo'lmagan tarzda xato tarjima qilishi.
3. **Infratuzilma cheklovlari:** Ayrim platformalarning pullik ekanligi yoki bepul versiyalarida qat'iy limitlar (cheklovlar) mavjudligi.

Tavsiya etiladigan yechimlar:

- Ta'lim muassasalarida sun'iy intellektni mustaqil o'qituvchi sifatida emas, balki **yordamchi vosita** (foster-tool) sifatida joriy etish.
- Pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish maqsadida maxsus uslubiy treninglar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
- Talabalarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish uchun kiber-xavfsizlik choralarini kuchaytirish.

XULOSA

Mazkur bitiruv malakaviy ishi doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar zamonaviy pedagogikani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular koreys tili yozma nutqini o'rganishda adaptiv darslar yaratish, o'quvchilarning individual xatolarini tezkor aniqlash va lug'at boyligini oshirishda samarali xizmat qiladi.



Biroq, SI tomonidan generatsiya qilingan har qanday matn inson omilining nazoratisiz o'zining tabiiyligi va hissiy jozibasini yo'qotadi. Kelajakda ta'lim samaradorligini ta'minlash uchun raqamli innovatsiyalar va an'anaviy pedagogik uslublarning oqilona hamda kompleks integratsiyasini amalga oshirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Russell, S., & Norvig, P. (2021). *Artificial Intelligence: A Modern Approach* (4th ed.). Pearson Education.
2. Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). Artificial Intelligence for the Real World. *Harvard Business Review*, 96(1), 108-116.
3. Chen, M., Mao, S., & Liu, Y. (2024). Big Data: A Survey. *Mobile Networks and Applications*, 19(2), 171-209.
4. Inoyatov, U. I. (2023). *Sun'iy intellekt texnologiyalari va ta'lim samaradorligi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. UNESCO. (2020). *Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities*. Paris.
6. OECD. (2019). *AI and the Future of Skills: Education Implications*. Paris.
7. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). *Intelligence Unleashed: An argument for AI in Education*. London: Pearson.
8. Selwyn, N. (2019). *Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education*. Cambridge: Polity Press.
9. West, D. M. (2021). *Digital Divide: Equity Issues in AI-driven Classroom Education*. Brookings Institution Report.
10. Kuk, K., et al. (2021). Application of NLP Models in Korean Language Writing Skills. *Journal of Korean Language Education*, 32(3), 145-168.
11. Chomsky, N. (2006). *Language and Mind*. Cambridge University Press.
12. Platformalar: Naver Papago (<https://papago.naver.com>), OpenAI (<https://openai.com>).